

# Rossiya bankida hisob raqam

## Hisob raqam nega kerak

Rossiyada rivojlangan bank tizimi mavjud. Mehnat faoliyati uchun to'lov qabul qilish, xizmatlar va xaridlar uchun to'lovlarni amalga oshirish, pul o'tkazish va qabul qilish, jumladan, tezkor to'lov tizimidan foydalanish uchun hisob raqami ochishingiz mumkin.

Xaridlar uchun, shuningdek, QR-kod yordamida yoki bank mobil ilovasi orqali to'lov qilishingiz mumkin.

## Hisob raqami qanday ochiladi

Hisob raqamini ochish uchun har bir bankning o'z qoidalari va hujjatlar ro'yxati mavjud. Tanlagan bankingiz bo'limida batafsilroq bilish mumkin.